



Development processes of modern civil society institutions in New Uzbekistan

Ikramjon MASHARIPOV¹

Tashkent Financial Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

15 December 2023

Accepted 20 January 2024

Available online

25 February 2024

Keywords:

New Uzbekistan,
modern civil society,
civil society institutions,
democracy,
non-governmental
institutions,
political parties,
associations,
social layers,
parliamentary commission,
public fund.

ABSTRACT

The scientific article identifies the main stages of the formation and development of modern institutions of civil society in New Uzbekistan. The problems of expanding the activities of civil society institutions and increasing their role and importance in the process of forming democratic values in our country have been studied. In particular, the author's analytical comments on the possibilities of their activation in the liberalization of socio-political life have been formed.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss1-pp134-140>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yangi O'zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish jarayonlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Yangi O'zbekiston,
zamonaviy fuqarolik
jamiyati,
fuqarolik jamiyati
institutlari,
demokratiya,
nodavlat institutlari,
siyosiy partiyalar,
uyushmalar,
ijtimoiy qatlamlar,
parlament komissiyasi,
jamoat fondi.

Ushbu ilmiy maqolada Yangi O'zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari ko'rib chiqilgan. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada kengaytirish, yurtimizda demokratik qadriyatlarning shakllanishi jarayonida ularning roli va ahamiyatini oshirish muammolari o'rganilgan. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirishda ularni faollashtirish imkoniyatlarini muallif tahliliy mulohazalari shakllantirilgan.

¹ Associate Professor, Candidate of Political Sciences, Tashkent Financial Institute.

Процессы развития современных институтов гражданского общества в Новом Узбекистане

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Новый Узбекистан,
современное гражданское
общество,
институты гражданского
общества,
демократия,
неправительственные
институты,
политические партии,
объединения,
социальные слои,
парламентская комиссия,
общественный фонд.

В научной статье определены основные этапы становления и развития современных институтов гражданского общества в Новом Узбекистане. Изучены проблемы расширения деятельности институтов гражданского общества и повышения их роли и значения в процессе формирования демократических ценностей в нашей стране. В частности, сформированы аналитические комментарии автора о возможностях их активизации в либерализации общественно-политической жизни.

1991-yil 31-avgustda dunyo xaritasida O'zbekiston Respublikasi mustaqil suveren davlat sifatida paydo bo'ldi. Mustaqillikning o'tgan chorak asri davomida o'ziga xos milliy davlatchilik shakllandi va fuqarolik jamiyatining unsurlari paydo bo'ldi. O'tgan davr ichida amalga oshirilgan islohotlar, ichki va tashqi siyosatda paydo bo'lgan muammolar va ularning yechimlari natijasi o'laroq rivojlanishning o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan milliy modeli tashkil topdi. Mustabidlik davri merosi, agrar munosabatlarning ustunligi, rivojlangan davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri kommunikatsiyaviy aloqalarning mavjud emasligi, eski mafkuraning asoratlari, fuqarolik jamiyati qurish yo'lidagi izlanishlar, huquqiy davlatga o'tish muammolari bir tomondan, mamlakat rivojlanishiga salbiy ta'sir etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, qishloq hududlarida ishsizlik va kambag'allik kabi ijtimoiy illatlarni keltirib chiqargan bo'lsa, uchinchi tomondan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish islohotlarini sustlashishiga sabab bo'ldi.

Lekin, shunga qaramay, 2017-yildan boshlab mamlakat rivojlangan davlatlarga xos rivojlanish yo'liga o'tdi, mamlakat har tomonlama dunyoga ochildi, jahon integratsiyasiga qo'shilishi tezlashdi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan birodarlik va hamkorlik an'alarini tikladi. Davlat va jamiyat qurilishi xalqaro tashkilotlar talablari va rivojlangan davlatlar tajribasi asosida rivojlana boshladi. Shu davrda zamonaviy fuqarolik jamiyatining eng asosiy prinsipi – inson erkinligi va huquqini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Dunyoning eng rivojlangan davlatlar O'zbekistondagi tub o'zgarishlarni nafaqat e'tirof etdi, balki O'zbekiston bilan hamkorlik qila boshladi.

Qisqa davr ichida bu kabi rivojlanish O'zbekiston Respublikasiga Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2016-yil 4-dekabrda Prezident etib saylanishi va uning "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan prinsip asosida islohotlarni amalga oshirilganligi bilan bog'liqdir. Qisqa muddat ichida beqiyos rivojlanishga erishildi, davlat hokimiyati organlari va jamiyatni modernizatsiyalashda ana shu prinsip bu sohadagi islohotlarning asosiy o'zagi sifatida namoyon bo'ldi. Aslida esa bu prinsip zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishning eng asosiy va bosh prinsipi edi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev yangi O'zbekistonni shakllantirish islohotlari yo'lini o'zbek xalqi bir necha asrlardan buyon orzu qilgan quyidagi o'z dasturida ifodalab berdi: "Barcha deputat va senatorlarga, ularning timsolida butun O'zbekiston xalqiga murojaat

qilib aytmoqchiman: demokratik islohotlar yo'li – biz uchun yakka-yu yagona va eng to'g'ri yo'ldir". Bu borada biz har kuni izlanishdamiz, xorijdagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, hayotimizni, ish uslubimizni yangilashga harakat qilmoqdamiz. Biz yangi O'zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug'vor maqsadni o'z oldimizga qo'yganmiz. Bu borada "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda" Yangi O'zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish jarayonlarini huquqiy jihatdan ta'minlashda davlat xizmatlarining sifatini oshirish, o'z faoliyati yuzasidan jamoatchilikka tizimli ravishda ma'lumotlar taqdim etish masalalarida adliya organlari va muassasalarining roli va mas'uliyati sezilarli ravishda oshmoqda. Davlat xizmatlarini ko'rsatish va intellektual mulkning huquqiy himoyasi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda tizim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu sohalarda muvofiqlashgan faoliyatni ta'minlash hamda mavjud ma'muriy tuzilmalarning yaxlit vertikal boshqaruvini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlanish tendensiyalari Yangi O'zbekiston poydevorini shakllantirish jarayonlariga uzviy hamohang ravishda kechmoqda. Bunda mamlakatimiz oldida turgan strategik vazifalar – xalqchil davlat, erkin fuqarolik jamiyati va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash kabi omillarni qamrab olgan kompleks va fundamental tadqiqotlarni olib borish ilmiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish islohotlari 2017-yildan boshlab jadallashdi. Albatta bunga mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 3-fevraldagi, PF-4944-son "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 4-maydagi PF-5430-son "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 4-martdagi PF-6181 Farmoni bilan tasdiqlangan "2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"gi hamda 2020-yil 12-fevraldagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda hozirgi kunda bu sohadagi xorijiy tajribalarni yanada chuqurroq va kengroq o'rganishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy fuqarolik jamiyati nazariyasining rivojlanishi”. Hozirgi davr fuqarolik jamiyati nazariyasiga AQSh siyosatshunos olimi B.Barber katta hissa qo’shdi. U NNT – “uchinchi sektor ijtimoiy sektordan o’ziga egalitarizm (tenglashtirish) va o’zaro aynanlik prinsiplarini, xususiyl sektordan esa – ixtiyoriylk va shaxs suvereniteti prinsiplarini tanlab oladi Uchinchi sektor ularning hammasini bir vaqtning o’zida namoyon etgan holda amalga oshiradi. Xuddi ana shu holat men jiddiy demokratik istiqbollar, deb atagan tamoyillarni o’zida ifodalaydi”, degan fikrni ilgari suradi.

Nemis olimi V.Dettlning fikricha, “fuqarolik jamiyati g’oyasi bozor va davlatga qo’shimcha bo’lgan tushunchadan boshqa narsa emas. Fuqarolik jamiyati g’oyasi yangi radikal siyosiy konsepsiyaning ifodalanishi bo’lib, u hech qachon davlat va bozor tomonidan o’rnatilgan kengliklarni inkor etgan emas, lekin, shu bilan birga, u bu

kengliklar doirasidan chiqadi. Fuqarolik jamiyati konsepsiyasi oilada ham, shuningdek, boshqa tashkilotlarda ham ular tomonidan bajarilgan rollarning sifatiga muvofiq holda ular o'rtasidagi o'zaro tenglikni ta'minlay oladigan muvozanat bo'lishini talab etadi".

XX asr nemis faylasufi va sotsiologi Y.Xabermasning fikricha, "ijtimoiy-ommaviy soha jamiyatning paydo bo'lishi, uni davlatdan ajralishi natijasi o'laroq shakllangan. Fuqarolik jamiyati, o'z navbatida, xususiy qonunlar va liberal bozor tomonidan tuziladigan shaxsiy avtonomiya sohasi hisoblanadi".

Hozirgi davr G'arb nazariyotchilari zamonaviy fuqarolik jamiyati modelini quyidagi institutlar va sohalardan iborat ekanligini e'tirof etishadi: birinchidan, plyuralizm: ijtimoiy sohalarda, jamiyatda, undagi nodavlat notijorat tashkilotlarda (NNT), turli ijtimoiy qatlam va guruhlarda plyuralizmning mavjudligi; ikkinchidan, hayot erkinligi: turli ijtimoiy-madaniy va kommunikatsiya sohasidagi institutlar; uchinchidan, shaxsiy hayot daxlsizligi: shaxsning rivojlanish shart-sharoitlarining mavjudligi, fuqarolarda xulqiy fazilatlarini tanlash erkinligining mavjudligi; to'rtinchidan, qonuniylik: fikrlar va dunyoqarashlar turfaligini qonun doirasida kechishi maqsadida universal qonunlar qabul qilish, insonning o'z faoliyatida davlat organlari ta'siridagi mustaqilligi, uning iqtisodiy munosabatlarda daxlsiz bo'la olish sharoitlarini mavjudligi. Mazkur omillar va institutlarning birgalikdagi va uyg'unlikdagi o'zaro ta'siri, bir-birlarini taqozo etishi zamonaviy fuqarolik jamiyatining rivojlanganligini anglatadi.

Yangi O'zbekistonda keng ko'lamda siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jabhalarda islohotlarni avj oldirib yuborgan ekan, bu islohotlar negizini uch ming yillik davlatchilik tariximiz, ma'naviy merosimiz va milliy mentalitetimiz xususiyatlarini asos qilib oldi va uni og'ishmay amalga oshira boshladi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning asarlarida yangi O'zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir islohotlar keng yoritib berilmoqda. Ijtimoiy siyosatning muhim vazifasi davlat va bozor manfaatlari ishtirok etmaydigan, kishilar o'zlarining mavjudligini fuqarolar sifatida anglab yetadigan, o'zlari va boshqalar uchun foydali ishlar bilan mashg'ul bo'ladigan mahalliy darajalarda ular uchun kengliklar yaratishdan iboratdir. Shu bilan birga, fuqarolarning ma'lum qismi tadbirkorlik ijtimoiy maqomiga erishishlari mumkin. Siyosatchilarning ustuvor vazifalari ana shu kengliklarni yaratish, rivojlantirish va mustahkamlashdan iborat bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, hukumat ijtimoiy majburiyatlarni tezlik bilan amalga oshirish vositasiga aylanadi. Agar fuqarolik jamiyati g'oyasi ko'proq ma'naviy xarakter kasb etsa, u jamiyatni o'zgarishlarga moyil bo'lgan konsepsiyalardan biriga aylanadi. Bu g'oya asosan farovonlik davlatini o'zgarishlarga qilishiga undaydi. Uning quyidagi muhim uchta jihatlari mavjud:

- rasmiy hukumat o'zining muhimligini yo'qotmaydi – u har qachongidan ham yanada muhimroq bo'lishi mumkin – lekin, u o'zining jamiyatdagi rolini qaytadan belgilab olishi taqozo etiladi. Siyosatchilar fuqarolarning ijtimoiy faolliklarini inkor qilmasliklari, aksincha, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashlari va rag'batlantirishlari lozim;

- ijtimoiy sohada musobaqadoshlik unsurlari ham zaruriyatdir. Masalan, jamiyatning ijtimoiy samaradorligini oshirish va ijtimoiy xizmat ko'rsatish kabilar uchun. Bu ma'noda ijtimoiy almashuvlar ancha samaralik ravishda amalga oshishi mumkin;

- sanoat va korporativ hayot ijtimoiylashuvi lozim.

Fuqarolik jamiyati hayot, jamiyat va mehnat tizimlarini qaytadan o'zgartirishni tezlashtirishga moyilligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy mehnat madaniyatini iqtisodiy jihatlar bilan boyitish, shuningdek, mehnat sohasidagi muvaffaqiyatlar umuman butun

jamiyat hayotidagi muvaffaqiyatlarga olib keladi. Lekin, fuqarolik jamiyati konsepsiyasi oilada ham, shuningdek, boshqa tashkilotlarda ham ular tomonidan bajarilgan rollarning sifatiga muvofiq holda ular o'rtasidagi o'zaro tenglikni ta'minlay oladigan muvozanat bo'lishini talab etadi. Bu kabi jamiyatda erkaklar va ayollar muvaffaqiyatlarga erishishlari uchun teng imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Lekin, hozirgi davrda ham turli olimlar o'rtasida zamonaviy fuqarolik jamiyatini sharqda yoki g'arbda, shimolda yoki janubda, shuningdek, uni turli mamlakatlarda har xil shart-sharoitlarda shakllanishiga doir bahslar davom etmoqda. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining rivojlanishida demokratik qadriyatlar muhim o'rin tutadimi yoki liberal mafkura samaraliroqmi?, qabilidagi savollarga berilayotgan javoblarning ham bir-biridan farqlanishi kuzatilmoqda. Keyingi o'n yillikda "ikki xil talqinlar avj oldi: zamonaviy fuqarolik jamiyati va diskursiv (voqelikni o'zaro bog'liqlikda va ketma-ketlikda idrok etishga asoslangan) etika nuqtai nazaridan baholashlar. Ulardan birinchisi klassik liberalizm mavzusi bilan bog'liq bo'lib, ular – "fuqarolik jamiyati" tushunchasi hozirgi davrda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi, ijtimoiy hayot erkinligi (so'z va uyushmalar erkinligi), qonun oldida tenglik, mulkka bo'lgan huquqlarni eslashga majbur etadi. Ikkinchisi esa, bahs talab me'yorlarni ochiq muhokama qilishda barchaning teng ishtirok etishiga alohida urg'u beradi, shuningdek, ularning yechimini demokratiya prinsiplariga havola qiladi.

Hozirgi davr siyosiy nazariyalarida liberalizm va demokratiya asoslarini bir-birlariga qarama-qarshi qo'yuvchi (qaytadan paydo bo'lgan) qarashlar ham mavjud. Klassik liberalizm asoschilari himoyachilari "agar demokratiyaga xos bo'lgan ko'pchilikning boshqaruvi va umumiy ishtirok etish jarayonlarida yetarli darajadagi nazoratni amalga oshirish va hokimiyat faoliyatini cheklashlar yetishmay qolsa, u holda mavjud erkinliklarga xavf tug'iladi, shuning uchun ham, bu – yohud sarob, yoki undan-da yomon bo'lgan holatdir", degan fikrga moyillik kuchaydi. To'g'ridan to'g'ri, yoki radikal demokratiya tarafdorlari esa, o'z o'rnida, "liberal an'analar ko'pchilikning ishtirokiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etish yo'lidagi bosh to'g'onoq", deb biladilar. Mashhur siyosatshunoslardan Jin Koen va Endryu Aratolar esa yuqorida ko'rsatilgan har ikkala (liberal va demokratik) qarashlarni birlashtirishga harakat qilib, ularning to'g'riligi bu nazariy qarashlarni konseptual va me'yoriy jihatlardan o'zaro mustahkam aloqadorligiga bog'liq, degan fikrga keldilar. O'zbekistonda mustaqillik davrida milliy davlatchilik shakllandi va fuqarolik jamiyati unsurlari paydo bo'ldi. 2017-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi va uning boshchiligida amalga oshirilgan islohotlar natijasi o'laroq mamlakat rivojlangan davlatlarga xos rivojlanish yo'liga o'ta boshladi, mamlakat dunyoga ochildi, uning jahon integratsiyasiga qo'shilish jarayoni tezlashdi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan birodarlik va hamkorlik an'analarini tiklandi.

2017–2022-yillarda davlat va jamiyat qurilishi xalqaro tashkilotlar talablari hamda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida rivojlana boshladi. Shu davrda zamonaviy fuqarolik jamiyatining eng asosiy prinsipi – inson erkinligi va huquqini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Jamiyat taraqqiyoti "Davlat-jamiyat-inson" modelidan insonni qadrlashga asoslangan "inson-jamiyat-davlat" modeli asosida rivojlanish bosqichiga o'tildi. Davlat hokimiyati organlari va jamiyatni modernizatsiyalashda ana shu prinsip bu sohadagi islohotlarning asosiy o'zagi sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur model har tomonlama fuqarolik jamiyati institutlarini

shakllantirish va rivojlantirishning eng asosiy va bosh prinsipi hisoblanadi. Mustaqillik davrida shakllangan fuqarolik jamiyati islohotlari va bu sohadagi xorijiy tajribalarni tatbiq etish natijasida takomillashib bormoqda. Bugun inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish strategik maqsadga aylandi.

Prezident Sh.M. Mirziyoev yangi O'zbekistonni shakllantirish islohotlari yo'lini o'zbek xalqi bir necha asrlardan buyon orzu qilgan quyidagi o'z dasturida ifodalab berdi: "Barcha deputat va senatorlarga, ularning timsolida butun O'zbekiston xalqiga murojaat qilib aytmoqchiman: demokratik islohotlar yo'li – biz uchun yakkayu yagona va eng to'g'ri yo'ldir. Bu borada biz har kuni izlanishdamiz, xorijdagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, hayotimizni, ish uslubimizni yangilashga harakat qilmoqdamiz. Biz yangi O'zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug'vor maqsadni o'z oldimizga qo'yganimiz. Bu borada "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda "Yangi O'zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish jarayonlarini huquqiy jihatdan ta'minlashda davlat xizmatlarining sifatini oshirish, o'z faoliyati yuzasidan jamoatchilikka tizimli ravishda ma'lumotlar taqdim etish masalalarida adliya organlari va muassasalarining roli va mas'uliyati sezilarli ravishda oshmoqda. Davlat xizmatlarini ko'rsatish va intellektual mulkning huquqiy himoyasi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda tizim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu sohalarida muvofiqlashgan faoliyatni ta'minlash hamda mavjud ma'muriy tuzilmalarning yaxlit vertikal boshqaruvini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlanish tendensiyalari Yangi O'zbekiston poydevorini shakllantirish jarayonlariga uzviy hamohang ravishda kechmoqda. Bunda mamlakatimiz oldida turgan strategik vazifalar – xalqchil davlat, erkin fuqarolik jamiyati va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash kabi omillarni qamrab olgan kompleks va fundamental tadqiqotlarni olib borish ilmiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish islohotlari 2017 yildan boshlab jadallashdi. Albatta bunga mamlakat Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tashabbusi bilan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 3-fevraldagi, PF-4944-son "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 4-maydagi PF-5430-son "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 4-martdagi PF-6181 Farmoni bilan tasdiqlangan "2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"gi hamda 2020-yil 12-fevraldagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda hozirgi kunda bu sohadagi xorijiy tajribalarni yanada chuquroq va kengroq o'rganishni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ш. Мирзиёев «Халқ давлат идораларига эмас, балки давлат органлари халқимизга хизмат қилиши керак» 31.08.2017. <https://kun.uz/news/2017/08/31>.
2. Ш.Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24.01.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.
3. Barber B. R. Civil Society: Getting Beyond the Rhetoric. A Framework for Political Understanding //Civic Engagement in the Atlantic Community. Bertelsmann Foundation Publishes Gutersloh, 1999.-P.5-6.
4. Dettling W. The "Burgergesellschaft": Scope for Reforming the Welfare State? //Civic Engagement in the Atlantic Community. Bertelsmann Foundation Publishes Gutersloh, 1999.-P.3-5.
5. Habermas J. The structural transformation of the public sphere. An inquiry into a category of bourgeois Society-Cambridge, 1989.-P.27-73
6. Муқимжон ҚИРҒИЗБОЕВ, Ислоҳотлар муваффақияти сиёсий партияларнинг етуқлик даражасига боғлиқ. Huquq va burch. № 10 сон 2019й.
7. Masharipov.I.B. Forms and Technologies of Mutual Relations Between the State and Civil Society Institutions International Journal of Development and Public Policy| e-ISSN: 2792-3991 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 3 Issue: 3 in March -2023 .52-56.
8. Masharipov I.B. Factors of development processes of socio-political bases of NGOS in new Uzbekistan // International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research, Volume: 13 Issue: 01 in January-2024. <https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR>.
9. З.Хайитматов.Терроризм ва экстремизм-ёшлик кушандаси. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. №3 сон 2017й. Тошкент.Б.35-40.
10. Masharipov.I.B. Theoretical Foundations of the Development of Modern Civil Society Institutions in a Democratic Legal State. INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE.